

## **NOMA JANRIGA MANSUB DOSTONLARNING VAZN XUSUSIYATLARI**

**Shahnoza Muhitdinovna RAHMONOVA**

Doktoranti, PhD

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## **МЕТРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭПИЧЕСКИХ ПОЭМ В ЖАНРЕ НАМЕ (ПОСЛАНИЕ)**

**Шахноза Мухитдиновна РАХМОНОВА**

Докторант, PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

## **METERES OF THE EPIC POEMS IN THE GENRE NAME (LETTER WRITING)**

**Shahnoza Muhitdinovna Rakhmonova**

Doctoral student, PhD

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

UDC (UO'K, УДК): 821:398.22.

### **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rahmonova Sh. M. Noma janriga mansub dostonlarning vazn xususiyatlari.

// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 4 (45). — B. 158-177.

<https://doi.org/10.36078/1667286221>

**Received:** July 20, 2022

**Accepted:** August 17, 2022

**Published:** August 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Open Access**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada noma janrining kelib chiqishi, genezisi, tadrijiy takomili, turkiy va forsiy adabiyotlardagi rivojlanish tamoyillari tadqiq etilgan. Maqolada nomaning dastlabki ko'rinishlari Markaziy Osiyo tarixida hali yozuv paydo bo'lmagan buyumlar vositasida ifodalanganligi ta'kidlanadi. Bunday ko'rinishdagi maktublarning ildizi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratiladi. Bu o'rinda "Alpomish" dostonidagi Oybachinning Hakimbek ya'ni Alpomishga yozgan maktubi keltirib o'tiladi. Bevosita yozma adabiyotda noma janri Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham mavjudligiga to'xtalib o'tiladi hamda hozirgi shakldagi noma, ya'ni doston — epik poeziya tarkibidagi nomaning dastlabki ko'rinishlari fors adabiyotida Faxriddin Gurgoniy ijodida uchrashi, o'zbek adabiyotida ushbu an'ana Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan boshlanganligi bilan bog'liq fikrlar o'rta tashlanadi. Maqolada Xo'jandiyning "Latofatnoma", Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma", Qosimiyning ikki dostoni "Haqiqatnoma" va "Ilohiynoma" asarlari hamda Miriy "Gulnoma"sining noma yo'nalishidagi dostonlar sifatidagi adabiy qimmat ham o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** doston; noma; janr; vazn; aruz; hazaj.

**Аннотация.** В данной статье анализируются зарождение, генезис, постепенное развитие жанра наме, принципы его развития в тюркской и персидской литературе. В статье подчеркивается, что первые проявления наме в истории Средней Азии выражались посредством предметов еще до появления письменности. Обращает на себя внимание тот факт, что истоки таких посланий связаны с народным творчеством. В этом смысле цитируется письмо Ойбарчина к Хакимбеку, т.е. Алпомышу, из эпоса «Алпамыш». Прямо ссылаясь на

существование жанра наме в письменной литературе в «Девону луготит-тюрк» Махмуда Кашгари и в эпосе Юсуфа Хос Ходжиба «Кутадгу билиг», говорится, что первые проявления наме в его современном виде, т.е. эпической поэзии, встречаются в произведениях Фахриддина Гургони в персидской литературе, а в узбекской литературе на первый план выдвигаются идеи, связанные с началом этой традиции в хорезмийском «Мухаббат-наме». Также анализируются «Латофат-наме» Ходжанди, «Таашшукнама» Саида Ахмада, «Дах-наме» Юсуфа Амири, два эпоса Касими «Хакикат-наме» и «Илохий-наме» и «Гюль-наме» Мири. Исследованы «васл», «имола», «тагйир», «таслим», а также метр для произведений в жанре наме — хазаджи мусаддаси махзуф.

**Ключевые слова:** эпос; наме; жанр; метр; аруд; хазадж.

**Abstract.** The article analyses the origin, genesis, gradual development of the “noma” genre and its development principles in Turkish and Persian literature. The article emphasizes that the first manifestations of the noma in the history of Central Asia were expressed by means of objects even before the appearance of writing. Attention is drawn to the fact that the roots of such letters are connected with folk art. In this regard, the letter written by Oybarchin to Alpomish, from the epic “Alpomish” is cited. The noma genre in written literature first manifested according to Mahmud Kashgari's “Devonu Lug'otit-Turk” and in Yusuf Hos Xojib's epic “Kutadgu Bilig”, in its current form in the works of Fahriddin Gurgoni in Persian literature. In the Uzbek literature the ideas related to the beginning of this tradition go back to Khorezmi's “Muhabbatnama”. Khojandi's “Latofatnama”, Said Ahmad's “Taashshuqnama”, Yusuf Amiri's “Dahnama”, Kasimi's two epics “Hakikatnama” and “Ilohiyname” and Miri's “Gulnama” are also analyzed; the events of “wasl”, “imola”, “taghyr”, and “taslim” have been explored. Hazaji musaddasi mahzuf was found as the most acceptable metre for the works in letter-writing genre.

**Keywords:** epic; genre; meter; aruz; khazaj.

**Kirish.** Sharq mumtoz adabiyotida noma janrining paydo bo'lishi uzoq tarixga ega. “Noma” — farscha “xat”, “maktub” ma'nolarini anglatadi. Professor N.Rahmonov nomaning ilk ko'rinishlari O'rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo'lmasdan ilgari buyumlar vositasida ham ifodalanganligini ta'kidlaydi. Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrisning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlari — kamon o'qi, baqa, sichqon qushdan iborat o'ziga xos “maktub”ini eslash kifoya (11). Albatta, bu kabi maktublarning ildizi qadim tarixga borib taqaladi. Shuningdek, nomaning ildizlarini xalq og'zaki ijodida ham ko'rish mumkin. Bu borada “Alpomish” dostoni qahramoni Oybarchinning Alpomishga (Hakimbekka) yozgan maktubini misol qilib keltirish mumkin.

Adabiyotshunos B.Valixo'jaev dostonchilik ildizlarini, yangi-yangi xillarning yaratilishini nafaqat xalq dostonlari, balki qadimgi yodgorliklar, xususan, M.Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asarida keltirilgan etuk, utkunch, sov, qissa kabilar va yozma adabiyotda mavjud noma namunalari, masnaviyda yozilgan she'riy asarlar va xamsachilik an'analari bilan chambarchas bog'langanligini “O'zbek epik poeziyasi tarixidan” nomli tadqiqotida qayd etadi (4). Noma janri ko'rinishlarini Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig”

dostonida ham uchratamiz. Voqealar rivojida davlatni boshqarish ishlari tobora ortib boradi. Shunda Kuntug'di elig O'gdilmishni yoniga chorlab, o'ziga o'xshagan donishmand kishilarni saroyga jalb qilishini aytadi. O'gdilmish esa bu ishga munosib bir qarindoshi borligini, faqat u uzlatga chekinganligini aytadi. Shundan keyin Kuntug'di O'zg'urmushni saroyga chorlab, unga maktub yozadi. Umuman, noma janri Sharq adabiyotida muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, maishiy, ma'naviy, madaniy hayotining asosi bo'lgan. Eski o'zbek tilida noma *bildurguluk* so'zi bilan ham istifoda etilgan. «O'g'uznoma» dostonida O'g'uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildurguluk, ya'ni noma yuborib, bo'ysunishni va o'lpon to'lashni talab qilgan» (10). Demak, shu tariqa muayyan ehtiyojlar sababli paydo bo'lgan xabarni ifodalash usullari nomaning shakllanishiga asos bo'lgan deyish mumkin.

Fors adabiyotida nomaning ilk ko'rinishlari Faxriddin Gurgoniy ijodida uchraydi. Uning XI asrda yaratilgan «Vis va Romin» dostonida nomaning ilk namunalari ko'ramiz. «Dostonda Vis Rominga jo'natgan o'nta noma keltirilgan. Faxriddin Gurgoniy ularni «Dahnoma» sarlavhasi ostida birlashtiradi. Undagi har bir noma ayol nomidan uni tashlab ketgan oshiqqa qarata yozilgan bo'lib, ma'shuqa sevgisining otashin izhorlari, umidvorlik tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan (5). Tarixchilar Faxriddin Gurgoniy «Vis va Romin» dostonining yozilish vaqtini 1048–1054-yillar degan xulosalarga kelgan. Bu go'zal ishqiy masnaviy bizgacha yetib kelmagan Parfiya qissasi syujetiga asoslangan (13). Doston keyinchalik ishqiy dostonlar uchun asosiy vazn hisoblanmish hazaji musaddasi mahzuf (rukni va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun U – – / U – – / U – – ) vaznida bitilgan.

Ma'shuqa o'zining hijronda tashlab ketilganligidan faryod chekadi, firoq alangasida o'rtanayotganligidan noliydi:

Tu to rafti,/ biraft az man/ hama kom,  
 U — — — / U — — — / U — — —  
 Na didorat/ hameyobam,/ na orom.  
 U — — — / U — — — / U — — —

Tarjimasi: Sen ketdingu sen bilan hamma niyatlari ham ketganday bo'ldi. Na diydoringga yetaman, na orom topaman (7).

Keyinchalik shoir Avhadiyning (1274 –1338) tugal noma janri sifatida yaratgan «Dahnomasi yuzaga keldi. Avhadiy bu asar qaysi manbalar asosida yaratilganini ko'rsatmagan. Undan keyin noma janrida asar yaratish an'anaviylikka aylandi. «O'zbek, ozarbayjon va fors-tojik adabiyotlari tarixida nomalarning ayrimlari shaharlarga bag'ishlansa («Sheroznoma»,...); boshqa bir turi muzika masalalari bilan aloqador bo'lsa («Naynoma»,...)», yana bir xili hayvonlar, meva va urf-odatlariga («Gulnoma»,...) bag'ishlangan (4). Demak, noma so'zi bilan kelgan asarlar janr va mavzu jihatidan ham xilma-xildir. Biz o'zbek adabiyotidagi aruz tizimida yaratilgan nomalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rgandik:

1. Noma — she'riy maktub shaklida yozilgan asar. Bu guruhga Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” kabi nomalarni kiritdik. Bu nomalarning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyat shuki, ularning mazmunida oshiqning ma’shuqaga yozgan ishqiy maktublari o‘rin olgan.

2. Noma — masnaviy shaklida yozilgan asar. Bu guruhga biz asar nomida “noma” so‘zi bo‘lgan, masnaviy shaklida bitilgan, aruz tizimi vaznlarida yozilgan asarlar: Qosimiyning ikki dostoni “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma”ni hamda Miriyning “Gulnoma”sini kiritdik. Biz bu mezonda B.Valixo‘jaev qarashlariga tayandik.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbek adabiyotida noma yo‘nalishidagi dostonlarga xos vaznlar tizimli o‘rganilmagan. 1987 yili M. Abduvohidova, H. Muxtorova, B. Qosimxonov va O. Jo‘raev o‘zbek adabiyoti bo‘stoni turkumida noma yo‘nalishidagi asarlarni “Muborak maktublar” nomi ostida, 2007 yili esa N. Rahmonov mukammalroq qilib “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari” kitobini nashr qildirdi. Nomalar nazariyasi bo‘yicha B. Valixo‘jaev “O‘zbek epik poeziyasi tarixidan”, M. Jamolova “O‘zbek adabiyotida noma janri”, Sh.Hasanov “XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlari poetikasi”, D.Quvvatova esa “XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari” kabi tadqiqotlarini olib borganlar. Biz mazkur maqolani yozishda Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma”, Qosimiyning ikki dostoni “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma” hamda Miriyning “Gulnoma”sining matnlaridan foydalandik. Shuningdek, o‘rni bilan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (1996), Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Boburning “Muxtasar” (1971), A.Hojiahmedovning “O‘zbek aruzi lug‘ati” (1998) kitoblaridagi nazariy qarashlarga tayanildi.

**Asosiy qism.** Sharq mumtoz adabiyotida ilk turkiy noma janridagi asar Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari hisolanadi. N.Rahmonov shoirning ismi faqat Po‘latjon Domla Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida berilganligini aytadi. Xorazmiy haqida “Tazkirayi Qayyumiy”da quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Bu kishini Nozim Xorazmiy deb yuritiladurki, o‘zining “Muhabbatnoma” nomli yirik asari bilan — XIV asrning buyuk klassik yodgori bilan tanilmishdur. Shoirning tarjimayi holigina emas, hattoki nomi ham zamonamizda ma’lum bo‘lmadi. Lekin asari mo‘tabar kitobdur. Bu asar ham Oltin (O‘rda) hukmdorlari davrida yozulmish qadimgi asardur”(6). Shuningdek, tazkirada “Muhabbatnoma”dagi Xo‘jabek shaxsi to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltiriladi va asardan parcha beriladi.

Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asari birinchi majlisida Xorazmiy taxallusida ijod qilgan ikki ijodkor: Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy hamda Mavlono Husayn Xorazmiy xususida so‘z yuritadi. Anglashiladiki, bular Nozim Xorazmiy emas. Lekin Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asaridagi ayrim misralarga duch kelamiz. Xususan,

*Aningkim, ol enginda meng yaratti,  
Bo 'yi birla sochini teng yaratti*

singari bayt Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning kirish qismidan o'rin olganligi ochiqdanadi.

Musulmon sharqi adabiyotida Xorazmiy o'z asari bilan nafaqat yangi janr, balki ishqiy mavzudagi dostonlar uchun mo'ljallangan hazaji musaddasi mahzuf vaznini ham olib kirdi. O'zbek epik poeziyasida mazkur vaznning ilk bor qo'llanishi ham Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Uning 1353–1354 yillari yozilgan "Muhabbatnoma" dostoni shu vaznda. Alisher Navoiy o'zining "Mezon ul-avzon" asarida turk xalqida "Muhabbatnoma" deb atalgan qo'shiq borligini va mazkur qo'shiqning o'lchovi biz yuqorida tilga olgan vazn bilan mutanosib kelishini ta'kidlaydi: "Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani "muhabbatnoma" derlar, ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va xolo matruqdur, budur (bayt):

*Meni og'zing uchun shaydo qilibsen  
Manga yo 'q qayg'uni paydo qilibsen" (2).*

Demak, xalq og'zaki ijodidagi "Muhabbatnoma" qo'shig'i ohangi bilan Xorazmiy "Muhabbatnoma"si vazni orasida muayyan darajada aloqadorlik mavjud ekan.

Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning kirish qismida hamd, "Avval ko'rishgonin aytur", "Bayoni voqiyi aytur", "Muhammad Xo'jabek sifoti", "Vasful-hol aytur", 4 ta g'azal va 2 ta masnaviy keltirilgan. Keyin 11 ta nomaga navbat beriladi. Har bir nomadan keyin soqiyga qaratilgan uch baytli masnaviylar, uchinchi hamda o'ninchi nomadan so'ng g'azal, o'n birinchi nomadan keyin esa qit'a, munojot, hikoyat, "Xotimat ul-kitob", "Iltimosin aytur" qismlari hamda fard keltiriladi. Shoir dastlab "Muhabbatnoma"ni 10ta noma qilib bitmoqchi bo'lgani, lekin yana bir noma qo'shganligini o'ninchi nomadan keyin kelgan masnaviyda aytadi:

*Bu yerga yetti so'z, toxir bo'ldi,  
Burun o'n dedim, o'n bir bo'ldi (13).*

Shoir baytda bu yerga so'z yetganida oxiri bo'lgani, oldin nomalarni o'nta qilaman deb, keyin o'n bir qilganligini bayon qiladi. O'n bir nomadan 4-, 8- va 11-nomalar fors-tojik tilida bitilgan bo'lib, qolgan 8 noma turkiy (o'zbek) tilda yaratilgan. Bundan ko'rinadiki, "Muhabbatnoma" turli janrlardan: noma, masnaviy, g'azal, qit'a, fard, hikoyatlardan tashkil topgan. "Muhabbatnoma" an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Bunda shoir

*Uluq Tangrining otin yod qildim,  
"Muhabbatnoma"ni bunyod qildim (13).*

deb nomani bunyod qilganligini aytadi. Nomalar asosini — oshiqning o'z ma'shuqasiga yo'llagan she'riy maktublari tashkil etadi. "Maktub orqali his-kechinmalarni ifoda etish o'zbek mumtoz adabiyotida, qolaversa, dunyo adabiyotida an'anaviylashgan" (13).



Ularning o'ntasini shoir to'g'ridan-to'g'ri ma'shuqaga murojaati bilan, faqat ikkinchi nomanigina "Salomim gulga ayt, ey tong nasimi", — deb tong nasimiga murojaat qilgan holda boshlaydi. Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining avvalgi nomasida ma'shuqaning go'zalligi ta'rif etiladi:

Ayo ko'r-k-ich/ra olam po/d(i)shohi,  
 U — — — / U — — — / U — — —  
 Jahon tutti/ sening husnung/ sipohi.  
 U — — — / U — — — / U — — —  
 Pari ruxso/ralarning ko'rk/ka boyi,  
 U — — — / U — — — / U — — —  
 Yuzung navro'/z-u qoshing bay/ra-m+oyi (13).  
 U — — — / U — — — / U — — —

Ko'rinadiki, hazaji musaddasi mahzufda yaratilgan. Baytda o'lchov imkoniyatiga ko'ra *vasl*, *imoladan* foydalanilgan. Birinchi misradagi "ko'rk" so'zi o'zidan keyin kelayotgan "ichra" so'zi bilan, to'rtinchi misradagi "bayram" so'zi esa o'zidan keyin kelayotgan "oyi" so'zlariga birikib, ko'r-k-ichra, bayra-m+oyi singari talaffuz etiladi. Shunda misradagi cho'ziq hijo (—) qisqa hijo (U)ga aylanadi-yu "Podshoh" so'ziga esa vazn talabi bilan bitta "i" unli orttirilib "Podishoh" tarzida istifoda etiladi. Shunda baytning vaznida saktalik kuzatilmaydi. Shoirning mahorati shundaki, u tashbihdan foydalanib, ma'shuqaning husnini pari ruxsoralar orasida go'zallikda tengsiz ekanini aytadi, yuzini yangi kunga, qoshini esa bayram oyiga o'xshatadi. Shuningdek, shoir noma davomida yorning tavsifini keltirishda tajnis san'atidan foydalanadi:

Bo'yung sarv-u sanubartek beling qil,  
 Vafo qilg'on kishilarga vafo qil (13).

Baytdagi qofiyadosh "qil" so'zlari shaklan bir xil bo'lsa-da, biroq ikki xil ma'noni ifodalagan. Birinchi misrada ma'shuqa belining ingichkaligini bildirsa, ikkinchi misrada harakat — vafo qilishni anglatadi. Shu bilan birga, vaznni hosil qilishda ham faol ishtirok etgan. Zero, "beling qil", "vafo qil" so'z birikmalari *mafoiylun* asliy ruknining *fauvlun* tarmog'ida yozilishni taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xorazmiy ikkinchi nomada tong nasimiga murojaat qiladi:

Salomim gulga elt, ey tong nasimi,  
 Kim erur oy quli, axtar nadimi (13).

Shoir baytda *gul*, *oy*, *axtar* so'zlarini qo'llash orqali ko'chma ma'noda ma'shuqani tavsiflagan. Bilamizki, *axtar* forscha so'z bo'lib, yulduz, *nadim* esa hamsuhbat degan ma'nolarni bildiradi. Shunda shoir tong nasimi orqali yorga salom yo'llab, uning xizmatkori, hamsuhbati kim ekanligini bilmoqchi bo'ladi.

Xorazmiy uchinchi nomada ma'shuqani quyoshdek (xurshiddek) olam charog'i, uning munavvar chehrasini esa jannat (firdavs) bog'i ekanligini tashbihdan foydalanib shunday tasvirlaydi:

*Ayo xurshidtek olam charog'i,  
Munavvar chehrangiz firdavs bog'i* (13).

Shu tariqa “Muhabbatnoma”ning qolgan nomalarida ham yorning vasfi keltiriladi. Har bir nomadan keyin masnaviylar keladi. Ularda shoirning har bir maktub mazmuni bilan bog‘liq taassurotlari o‘z ifodasini topgan. Bu masnaviylarning o‘ziga xosligi shundaki, ularning uchinchi bayti bir xil. Ya’ni:

*Saburdin yaxshi yo‘qtur pesha qilsam,  
Bu yo‘lda sabr yo‘q andesha qilsam* (13)

naqorat bayti “Muhabbatnoma”da muayyan fikrni ta’kidlaydi, asarning barcha komponentlarini bir-biri bilan bog‘lab turadi. Shoir agar amal qilsa, sabrdan yaxshisi yo‘qligi, bu yo‘lda andisha qilsa sabr yo‘q ekanligini ta’kidlaydi.

“Muhabbatnoma”da keltirilgan g‘azallar ham asar mazmuni bilan uyg‘un holatda kelgan. Ular ham dostonning vazni bilan muvofiq. Quyidagi jadvalda buni tahlil qilib ko‘rishimiz mumkin:

№	Vazn nomi	Bayt
1.	Hazaji musaddasi maqsur	Chi mah ro‘yi tu, ey sarvi saraftroz, Ki memonad bi ro‘yat gul dahanboz
2.	Hazaji musaddasi mahzuf	Yuzungni ko‘rdum, ey jon bayram oyin, Munung shukronasi qurbon bo‘loyin.
3.	Hazaji musaddasi mahzuf	Yarotqon kim tan ichra jon yaratti, Seni ko‘rkluklar uzra xon yaratti.
4.	Hazaji musaddasi mahzuf	Qadah savrildi ush bo‘ston ichinda, Xush ichgil rohi rayhon ichinda.
5.	Hazaji musaddasi maqsur	Jahonda sentek ey jonon yo‘q, ey jon, Sening dardingga hech darmon yo‘q, ey jon.
6.	Hazaji musaddasi maqsur	Biyo, ey sarv, qaddi gul banogush, Mayi gulgun ba ro‘yi xeshtan no‘sh.
Jami: 6 ta		

Demak, “Muhabbatnoma” tarkibida 6ta g‘azal istifoda etilgan bo‘lib, ularning 3tasi hazaji musaddasi mahzufda, qolgan 3tasi esa hazaji musaddasi maqsur vaznida yozilgan. Fors-tojik tilidagi g‘azallarning har ikkalasi ham hazaji musaddasi maqsurda yaratilgan.

“Muhabbatnoma”ning xotimasida bir forsiy hikoyat ham keltirilgan. Hikoyatda Xorazmiyning Shom safari vaqtidagi voqealardan biri masnaviy shaklida bayon etiladi. “Bu hikoyat shoirning hayot yo‘li, dunyoqarashi va xarakterini o‘rganish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega” (12). Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari poetik jihatdan yuqori darajada. Asarda tashbeh, tanosub, husnu ta’lil, tajnis kabi she’riy san’atlardan mahorat bilan foydalanilgan. Unda tasavvufiy qarashlar ham o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si va umuman, barcha nomalar, hazaji musaddasi mahzuf vaznida bitilgan.

Keyingi noma yo‘nalishidagi doston Xo‘jandiyning “Latofatnoma”si bo‘lib, asar an’anaviy hazaji musaddasi mahzufda yaratilgan. “Xo‘jandiyning “Latofatnoma”si XV asr boshlarida (1411 yillari) yozilgan bo‘lib, Temurning avlodlaridan biri — Xorazmda

hukmronlik qilgan Sulton Mahmudga bag'ishlangan" (13). Asarda Xo'jandiyning biografiyasi, tug'ilgan va vafot etgan yili haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Faqatgina, uning taxallusidan Xo'janddan ekanligini bilishimiz mumkin.

"Bizgacha "Latofatnoma"ning to'rt nusxasi yetib kelgan. Uning ikkitasi Kobul kutubxonasining muzeyida, bir nusxasi Istanbulda va yana bir nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Qo'lyozma hijriy 893 (milodiy 1488) yilda ko'chirilgan bo'lib, 313 baytdan iborat" (9). "Latofatnoma"da Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidek boshqa janrdagi she'rlar keltirilmaydi. Asar masnaviy shaklida yozilgan va qofiyalangan. Xo'jandiy bu asarini "Muhabbatnoma"ga javob tarzida yozganligini qayd etadi:

*Muhabbat jomidin ichsang sharobe,  
"Muhabbatnoma"ga aysang javobe.*

Xo'jandiyning "Latofatnoma"si o'n nomadan iborat. Bu haqida shoir asarida ma'lumot beradi:

*Tilimda so'z, elimda xoma bo'ldi,  
"Latofatnoma"ni ham o'n noma qildim (13)*

deb, shoir tilida so'z, qo'lida qalam bilan "Latofatnoma"ni o'n noma qilganligini ta'kidlaydi. Xo'jandiy asar so'nggida asarning otini "Latofatnoma" deb qo'yganligini aytadi:

*Latofatdin telim hangoma qo'ydim,  
Aning otin "Latofatnoma" qo'ydim (13).*

Shoir har bir nomani yakuniy qismida soqiyga murojaat etuvchi bir bayt keltiradi va shu bayt bilan noma yakunlanadi. Dostonda soqiyga murojaat etilgan bayt nomaning mavzusiga qarab o'zgarib boradi. "Latofatnoma" asaridagi muhim, boshqa nomalardan farq qiladigan alohida xususiyati shundaki, bu asarda muallif peyzaj lirikasi, tabiat lavhalarining tasviriga alohida ahamiyat bergan" (7). "Latofatnoma"ning birinchi nomasida:

Parilar sho/hisen husnung/ ziyoda,  
U — — — /U — — — / U — —  
Ruxung ko'rsa/ bo'lur shohlar/ piyoda (13).  
U — — — /U — — — / U — —

deb, bayt mazmunida ma'shuqaga qarata sen parilar shohisan, sening husning ularnikidan ham ziyoda, agar yuzingni shohlar ko'rsa piyoda bo'lishi bayon etiladi. Ayni paytda, bayt uchun tanlangan **ziyoda, piyoda** qofiyadosh so'zlari vaznini belgilashda asos bo'lgan.

*Berur zulfung nasimi jong'a rohat,  
Sizingtek kimda bor husni malohat (13).*

Ma'shuqa zulfining shabboda bois harakatga kelib, oshiqqa zavq berishi, unin husni malohati hech kimda yo'qligi ta'kidlanadi. Bayt uchun tanlangan **rohat, malohat** qofiyalari muassas bo'lib,



cho‘ziq “o” unlisi — ta’sis, “h” undoshi — daxil, “a” qisqa unlisi ishbo’, “t” undoshi raviydir. Uchinchi nomada shoir bir o‘rinda kitobat talmehdan mohirona foydalanadi.

*Aliftek to‘g‘ri bo‘yliq qoshlari nun,  
Jahon Laylilari husnungg‘a Majnun (13).*

Yorning bo‘yini alif(l)ga, qoshlarini nun(ن)ga qiyoslar ekan, uning husniga jahon Laylilari Majnun ekanligini aytadi. Yettinchi nomada tajnisni qo‘llash orqali ma‘noni kuchaytiradi:

*Qaro zulfing ichinda chin ko‘rarmen,  
Xato yo‘qdur bu so‘zda, chin ko‘rarmen (13).*

Baytning birinchi misrasidagi **“chin”** so‘zi **“jingalak”** ma‘nosida, keyingi misrada esa **“rost”**, **“haqiqat”** tarzida kelishini kuzatishimiz mumkin. Doston uchun tanlangan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni uning xushohangligini ta‘minlagan. Xo‘jandiy o‘z asarini yakunlar ekan,

*Xo‘jandiy so‘zlarin Xorazmiy miskin,  
Eshitsa yo‘lli deb qilg‘aydi tahsin (13)*

deb ustozi Xorazmiyga ma‘nan murojaat qiladi hamda uning tahsiniga loyiq asar yarata olganligini ishora qiladi.

O‘zbek adabiyoti tarixida noma janrining rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan shoirlardan yana biri Sayid Ahmad ibn Mironshohdir. U Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘li, Sayid uning adabiy taxallusidir. Bu haqida u o‘zining “Taashshuqnoma” asarida ham ma‘lumot keltiradi:

*Ajunda to aningtek shoh bo‘lg‘ay,  
Duogo‘(y) ibni Mironshoh bo‘lg‘ay (13).*

Sayid Ahmad haqida Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarining VII majlisida quyidagilarni aytadi: Sayid Ahmad mirzo — salim tab’ va pokzehn kishi erdi. Xeyli mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g‘azal tavrda devoni bor. Va masnaviy tavrda “Latofatnoma” aningdur. Bu turkcha matla’ yaxshi vaqe’ bo‘lubturkim:

*Sayd etti firoqing meni murg‘i sahariydek,  
Qil odamiyliq, qilma nihon yuzni paridek.  
Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:  
Maham gar pesh az in pinhon bimonad,  
Ajab, gar bedilonro jon bimonad (1).*

Demak, Navoiy ma‘lumotiga qaraganda Sayid Ahmadning turkiy va forsiy devonlari bo‘lgan. Shuningdek, uning masnaviyda bittilgan “Latofatnoma” asari borligi ham ta’kidlanadi va undan baytlar keltiriladi. “Taashshuqnoma” asari haqida hech qanday ma‘lumot uchramaydi.

Navoiy ta'kidlagan Sayid Ahmadning ikki devoni bizgacha yetib kelmagan, devonlar fanga ham ma'lum emas. Ular haqida adabiyotshunoslikda ma'lumotlar uchramaydi. Uning yolg'iz "Taashshuqnoma" asari bizgacha yetib kelgan. Asarning qo'lyozma nusxasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. O'zbek tilidagi nashri esa ushbu qo'lyozmaning fotonusxasi asosida tayyorlangan. Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" asari kompozitsiyasi yuqorida tilga olingan ikki nomadan qolishmaydi.

Asar 839/1435–1436 yili yozilgan bo'lib, 319 baytdan iborat. "Taashshuqnoma" an'anaviy hamd, na't, munojot, kitob sababi, Shohruh sulton madhi, 10 noma, har bir nomadan keyin bittadan g'azal va so'zning xulosasi hamda "Kitob xatmin aytur", "Ultimosin aytur" kabi qismlardan tashkil topgan. "Taashshuqnoma"ning muqaddimasida uning yaratilish sabablari qayd etiladi.

Sayid Ahmad o'z asardagi har bir nomani tuzilishiga ko'ra uch qismga ajratib (noma, g'azal, so'zning xulosasi) tuzdi va bu holat asardagi barcha nomalarda izchil saqlanadi. "Nomalardagi bu uch qism mazmunan bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, birbutunlikni tashkil etadi. Bu asar qurilmasi qat'iy reja asosida yaratilganini ko'rsatadi" (5). Shoir o'z asarini biron ijodkordan ta'sirlanib yozgani haqida ma'lumot bermaydi. Biroq, asarning tuzilishi, g'oyaviy yo'nalishi uning nomachilik an'analari asosida yozilganligini ko'rsatadi. Undan oldin yaratilgan nomalardagi kabi uning asari ham o'n nomadan iborat:

*Safo yetti bitigan xoma bo'ldi,  
"Taashshuqnoma" ham o'n noma bo'ldi (13).*

Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" asarida ham avvalgi nomalarda bo'lgani kabi oshiqning ma'shuqaga bitgan maktublari aks etadi. Maktublarda oshiqning holati, ma'shuqaning tavsifi, oshiqning bir-biriga dil izhorlari, sevgi yo'lidagi his-hayajonlari aks etadi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sida har bir nomadan keyin soqiyga murojaat qilingan masnaviylar keltiriladi. Sayid Ahmadning asarida ham 3–5 baytdan iborat "so'zning xulosasi" qismi har bir nomaning so'ngida beriladi. Ko'rinadiki, "Muhabbatnoma"da har bir masnaviy

*Saburdin yaxshi yo'qtur pasha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam*

bayti bilan yakunlansa, "Taashshuqnoma"dagi har bir "so'zning xulosasi"

*Tahammul yaxshi ishdur pasha qilmoq,  
Taxayyul birla ham andesha qilmoq*

bayti bilan tugaydi. Bundan ko'rinadiki, Sayid Ahmad uchun Xorazmiyning asari andoza bo'lgan. Biroq, Sayid Ahmad "Taashshuqnoma"ni uslub, mazmun va shakl jihatidan butunlay yangi asar darajasiga ko'targan. "Taashshuqnoma"ning avvalgi nomasi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Ayo, zebo/ sanamlar ko'r/kaboyi,  
 U — — —/ U — — —/ U — — —  
 Qamuq shahlar/ gadoyingning/ gadoyi.  
 U — — —/ U — — —/ U — — —  
 Bu kun husn o'r/dasinda po/d(i)shosen,  
 U — — —/ U — — —/ U — — —  
 Zarofat o/laminda mah/liqosen (13).  
 U — — —/ U — — —/ U — — —

Shoir baytda *tanosub*, *tazod*, *tashbih* she'riy san'atlarini bir yerda istifoda etish orqali vaznning ohangdorligini oshirgan. Baytning o'lchov imkoniyatini saqlash uchun uchinchi misradagi **“podshosen”** so'zini imola orqali **“pod(i)shosen”** kabi talaffuz etish kifoya. Shunda bir cho'ziq hijo(–)ning o'rniga o'ta cho'ziq hijo (–U) qo'llaniladi.

Shoir *“Taashshuqnoma”* asarida tajnisli so'zlarni qo'llashga alohida e'tibor qaratadi. Balki shuning uchundir 19 baytdan iborat bo'lgan ikkinchi noma faqat tajnisli qofiya bilan yaratilgan. Bunda shoir fikrning chiroyli va ma'noli chiqishiga erishgan. U nomada tajnisni qo'llash orqali oshiqning dil izhorlari ila ma'shuqaning ko'ngliga yo'l topmoqchi bo'ladi:

*Quyoshdur orazing yo Mushtariydur,*  
*Ki jon birla jahoni mushtariydur.*  
*Visoling zavqi-n+istab ey dilorom,*  
*Ta-n+ichra topmadi miskin dil orom (13).*

Birinchi baytdagi qofiyadosh **“mushtariydur”** so'zlari shaklan bir xil bo'lsa-da, biroq ikki xil ma'noni ifodalagan. Birinchi misrada Yupiter planetasini ifodalasa, ikkinchi misrada muxlis, asir degan ma'nolarni anglatib kelgan. Ikkinchi baytda esa dastlabki misradagi Dilorom — ismni, keyingii misrada esa dilning orom topishini ifodalamoqda. Baytda vazn talabi bilan ayrim so'zlar o'zidan keyin kelayotgan so'z bilan vasl hosil qilgan. Masalan, **zavqi-n+istab, ta-n+ichra** kabi.

*“Taashshuqnoma”* asarida oshiqning dil izhorlarini *hazaji musaddasi maqsur* vaznida bitilgan baytlar orqali ham ifodalash kuzatiladi. Xususan, to'rtinchi noma

Alo, ey sar/vi bo'yluq lo/la ruxsor,  
 U — — —/U — — —/ U — ~  
 Ko'zung jiyron/ mengingdur mush/ki totor  
 U — — —/ U — — —/ U — ~

kabi bayt bilan boshlanadi. Shoir baytda ridfi asliyli murdaf qofiyani qo'llash orqali hazaji musaddasi maqsur vaznining ohangini hosil qilgan. Oshiq ma'shuqaga murojaat qilar ekan, tashbihdan foydalanib, uning bo'yini sarvga (tik qomat), ruxsorini lolaga, ko'zini jayronga, holini xushbo'y mushkka qiyoslaydi. Sayid Ahmad asarda ma'shuqaning go'zalligini, husnda tanho malak ekanligini, bunday go'zallik oldida hur-u parilar lol ekanligi e'tirof etadi:

*Quyosh husnung ko'rub, ey mohitobon,  
Hijolat topti-yu bo'ldi yaroqon.  
Qachonkim la'lingiz bo'lsa shakarxand,  
Nabot urning qoshinda su bo'lur qand* (13).

Bu baytlarda shoir tanosub, tashbih she'riy san'atlaridan o'rinli foydalanib, baytning ta'sirchanligini oshirgan. O'ninchi nomada:

*Yuzungdur, ey pari, firdavsi a'lo,  
Seni zebo yaratti Haq Taolo* (13), —

deya, ma'shuqaga murojaat qilgan oshiq uning chehrasi jannat bog'idan ham a'lo ekanligini, uni bunday zebo qilib Haq Taolo yaratganligini ta'kidlaydi. Umuman, asarda ma'shuqa obrazi Sayid Ahmad tomonidan o'z salaflari kabi ancha ishonarli, maftunkor va jozibali qiyofada talqin qilingan. Biz yuqorida "Taashshuqnoma" asari tarkibida lirik janr — g'azallar ham o'rin olganligini ta'kidlagan edik. Ushbu g'azallarning mazmuni asarga singdirilgan. Ular go'yo nomaning davomidek tasavvur uyg'otadi. Sayid Ahmadning o'z salaflari Xorazmiy va Xo'jandiy an'alarini davom ettirishi natijasida noma janridagi yana bir asar paydo bo'ldi.

Nomachilikda epik ifoda va lirik tasvirning uyg'unlashib borishida Yusuf Amiriy "Dahnoma"sining o'rni ahamiyatlidir. Yusuf Amiriy XV asrda yashab ijod etgan. Uning bizgacha bir devoni, "Dahnoma" va "Chang va chog'ir munozarasi" asarlari yetib kelgan. Shoir haqida Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida ma'lumot keltiradi: "Mavlono Amiriy — turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe' bo'lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning "Dahnoma" sidindur:

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so'z,  
Yemakdin to'yub uyqudin yumub ko'z.*

Ba forsiyda Shayx Kamol tatabbu'i qilibdur. Bu matla' aningdurkim:

*Ro'zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,  
G'ayri zohid k-o'riyozatho kashidu xushk mond.*

Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur (1). Navoiy Yusuf Amiriy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham Gadoyi, Haydar Xorazmiy va boshqa ko'plab shoirlar qatori, o'z davrining ulug' shoiri sifatida ta'riflaydi (3). Shuningdek, Amiriy to'g'risida Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida ham ma'lumotlar keltiriladi. A.Hayitmetov Mavlono Yusuf Amiriy o'zbek adabiyotining Alisher Navoiygacha bo'lgan iste'dodli namoyandalaridan biri ekanligini qayd etadi (14). U XV asr birinchi yarmida Boysung'ur mirzo hukmronligi yillarida katta shuhrat qozongan. "Yusuf Amiriy xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan tuyuq janrini yozma adabiyotga olib kirish borasida ham o'z mahoratini namoyish etadi" (5). Shoir merosi ichida "Dahnoma" muhim o'rin

egallaydi. U ushbu asari orqali o'zbek nomachiligi taraqqiyotini yangi pog'onaga ko'tardi.

Yusuf Amiriy o'z asarini Shohruh Sultonning to'ng'ich o'g'li Boysung'ur mirzoga bag'ishlab yozadi. U asarini yaratishda qaysi ijodkorlardan ilhomlangani haqida ma'lumot keltirmaydi. Adabiyotshunos A.Hayitmetov fikrlariga ko'ra, Amiriy "Dahnoma" asarini yaratishda ko'proq Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonidagi an'analarga amal qilgan ko'rinadi. Amiriy "Dahnoma"ning kirish qismida Boysung'ur mirzo saroyidagi olim va fozil kishilar to'planganligini mamnuniyat bilan ta'kidlaydi. Nizomiy dostonida ham Mehinbonu saroyidagi ilm-san'at kishilari ta'rifi berilgan bo'lib, ularning soni ham o'nta (14). Shoirning o'zi ham "Dahnoma"ning xotima qismida

*Nizomiytek ishin bedard-u ranj et,  
Aning "Dahnoma"sini "Panj ganj" et (13)*

deb, o'z asarini Nizomiy dostonlari qatoridan o'rin olishini niyat qiladi. Adabiyotshunos M. Jamolova Amiriygacha fors tilida noma janrida bir necha "Dahnoma"lar yaratilganligini ta'kidlaydi. Ular qatoriga XI asrda yashab ijod etgan Faxriddin Gurgoniyni "Vis va Romin" dostoni tarkibidagi "Dahnoma", XIV asr birinchi yarmida yashagan ozarboyjon shoiri Avhadiyning "Dahnoma", fors shoiri Xoja Faqix Kirmoniyning "Dahnoma" kabi asarlarini kiritish mumkin (5). O'zbek adabiyotida ham XIV asr o'rtalaridan boshlab noma janri rivojlanib, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, Xo'jandiyni "Latofatnoma"si, Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma"si yozilgan edi. Albatta, Amiriy o'zigacha yaratilgan nomalardan xabardor bo'lgan va ulardan ilhomlanib o'z nomasini bitgan. Zero, "Latofatnoma" va "Taashshuqnoma"ni uning zamondoshlari bitgan edi.

O'zbek adabiyotida Amiriy noma janri an'anasini davom ettirgan bo'lsa ham, asar qurilishiga butunlay yangicha yondashadi. Uning asari muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Asar muqaddimasida hamd, na't, Xorun ar-Rashid hikoyati, "Dar sababi nazmi kitob" qismlaridan iborat. "Dahnoma"ning asosiy qismi 10ta noma, har nomadan keyin bittadan g'azal va fard hamda oshiq va ma'shuqaning nomani o'qib, unga javob yozishi tasvirini o'z ichiga oladi. Asarning xotima qismida shoir Boysung'ur mirzoni ko'klarga ko'tarib maqtaydi, minnatdorchilik izhor etadi hamda o'zini "she'r mulkining amiri" darajasiga yetganligini bayon etadi. "Dahnoma"ning "Dar xatmi kitob" qismida:

*Bu nozik tarhlar kelmas kishidin,  
Netuk men naql etay Moniy ishidin (13)*

deb, shoir o'zining mahoratini Moniyni san'atiga tenglashtiradi.

Doston syujetida bir yigit do'stining uyidan qaytayotganida yo'l yuzida oy yuzli bir qizni ko'rib qoladi. Yigit qiz bilan suhbatlashmoqchi bo'ladi, lekin qiz xohlamaydi. Shunda ular

yo'llariga ravona bo'lishadi. Faqat yigitning ko'z oldidan qizning sarvdek qomati, oy yuzli jamoli ketmaydi. Bu tuyg'ular yigitning yuragida muhabbat olovini alangalatadi. Dastlabki noma:

Alo, ey meh/r(i)ning tobon/da mohi,  
 U — — — /U — — — / U — — —  
 Malohat kish/Uarining po/d(i)shohi.  
 U — — — /U — — — / U — — —  
 Ji(y)ron ko'z luk/, buti mushkin/ kulola,  
 U — — — /U — — — / U — — —  
 Ko'zi nargis/, bo'yi sarU, en/gi lola (13)  
 U — — — /U — — — / U — — —

baytlari bilan boshlanadi. Baytda vazn talabi bilan imola, taslim hodisalaridan foydalanilgan. Vazn talabi bilan birinchi misradagi **“mehr”** so'zi **“mehri”**, ikkinchi misradagi **“podshoh”** so'zi **“podishoh”** tarzida talaffuz etilishi lozim. Shuningdek, uchinchi misradagi **“jiyron”** so'zi vazn talabi bilan taslimga uchraydi. Bunga ko'ra ushbu so'z **“jiron”** singari ifodalanadi. Aks holda baytda saktalik vujudga kelib, *mafoiylun mafoiylun fauvlun* ohangiga tushmaydi. Noma davomida oshiq ma'shuqaga

*Sen ul kunki nazarni mendin olma,  
 Bilib o'zungni bilmaslikka solma.  
 Meni o'tqa solib turma yiroqdin,  
 Tamosho qilma yot eltek qir(g')oqtin* (13).

deb, ma'shuqa nazarini oshiqdan olmasligini, o'zini bilib bilmaslikka solmasligini, oshiqni ishq o'tiga solib yiroqda turmasligini hamda begonalardek qirg'oqda tomosha qilmasligini aytadi. Keltirilgan baytdagi **“qirg'oqtin”** so'zini vaznga moslash uchun so'zning o'zak-negizidagi **“g”** undoshi tushirib yuboriladi va **“qiroqtin”** singari o'qiladi.

Amiriy **“Dahnoma”**si Xorazmiy **“Muhabbatnoma”**sidan farqli o'laroq, har bir nomadan so'ng bitta g'azal, fard va **“Mutolaa namudani ma'shuq nomayi oshikro va javob firistodan”** qismlari keladi.

Sayyid Qosimiyning **“Masnaviylar majmuasi”**ga kiritilgan uchinchi doston **“Haqiqatnoma”** deb nomlanadi. Doston an'anaviy hamd, na't, munojot, **“Dar sababi nazmi kitob”**, Abu Sayid mirzo tasarrufidagi bir shaharning hokimi Jaloliddin Sayyid Mazidga bag'ishlangan qasida, 10 bob va har bir bob uchun keltirilgan bittadan g'azal hamda xotimadan iborat. O'n bobning har biriga bittadan hikoyat kiritilgan. Hikoyatlar, asosan, Hasan Basriy, Ibrohim Adham, Xofiy Basriy va boshqa afsonaviy hamda tarixiy shaxslarga bag'ishlangan. **“Haqiqatnoma”**da Sayyid Qosimiyning boshqa dostonlaridan farqli o'laroq uning qachon yaratilganligi haqida ma'lumot mavjud. Dostonning **“Dar xatmi kitob”** qismida:

*Muhabbat ko'yida qildim iqomat,  
 “Haqiqatnoma”ni qildim tamomat...*



*Sekiz yuz oltmish uchda bo'ldi tayyor,  
Rabu'-ul-oxir oyinda bu guftor (11).*

baytlari keltiriladi. Unga ko'ra, doston hijriy 863 (milodiy 1459) yili yozilgan. Shoir "Haqiqatnoma"ning "Munojot" bobida dostonni Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si vaznida bitgani haqida ma'lumot beradi:

*"Haqiqatnoma" qo'ysam oning otin,  
Bayon qilsam burunqilar sifotin.  
Ma'oni durri olamga yoysam,  
"Muhabbatnoma"ning bahrini aysam (11).*

Biz bilamizki, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si hazaj bahrining *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan. *Hazaji musaddasi mahzuf* vazni qo'llanilish jihatidan epik poeziyada yetakchi o'rinni egallaydi. XIX asrgacha bo'lgan epik poeziyada mazkur vazn, asosan, ishqiy mavzudagi dostonlarda istifoda etildi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si va umuman, barcha nomalar, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Qutbning "Xisrav va Shirin", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlari mazkur vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi. Sayyid Qosimiy ham o'z dostoni "Haqiqatnoma"ni bitishda mazkur o'lchov imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Keltirilgan bayt *mafoylun/ mafoylun/ fauvlun* ohangida

Topulmas ib	-tidosig'a	bidoyat
U - - -	U - - -	U - -
Ko'runmas in	-tihsig'a	nihiyat
U - - -	U - - -	U - -

talaffuz qilinib, *hazaji musaddasi mahzuf* o'lchovida bitilgan. Shuningdek, bayt uchun tanlangan **bidoyat**, **nihiyat** qofiyadosh so'zlari bir vaqtning o'zida uning vazni tanlanishiga ham sabab bo'lgan, ya'ni ushbu qofiyadosh so'zlar *fauvlun* (U — —) taqti'siga mos keladi, boshqacha aytganda, uning *hazaji musaddasi mahzuf*da yozilishini taqozo etadi.

Majmuadagi so'nggi doston "Ilohiynoma" deb nomlanadi. Ushbu doston "O'zbek adabiyoti bo'stoni" turkumida gi "Muborak maktublar"da "Sadoqatnoma" nomi bilan ham keltiriladi. Doston

*Bor erdi vaqti bir sohibjamole,  
Nigore nozanine bemisole.  
Malohat kishvarida podshohe,  
Ko'zi lashkarkashu husni sipohe.  
Latofat suyidinbo'lmish sirishta,  
Kamoli husnina hayron farishta (11)*

kabi ayolni madh etganbaytlar bilan boshlanadi. Shu xususiyatiga ko'ra ushbu doston Sayyid Qosimiyning boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi. Uning markazida vafo va sadoqat timsoli ayol turadi. Doston nomlanishining o'ziyoq Farididdin Attorni

eslatadi. Adabiyotshunos olimlar N.Rahmonov va D.Yusupova Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma”si Farididdin Attorning shu nomdagi asariga javob ekanligini ta’kidlaydilar. Haqiqatan ham dostonning g’oyaviy mazmuni ham Attorning “Ilohiynomasi”ga yaqin turadi. Sayyid Qosimiy ham doston so’ngida shunday yozadi:

*Ilohiynomayi Attor bu dur,  
Davayi siynai afgor bu dur.  
Oni turkiy bila Qosimiy aydi,  
Ma’oniy guharini elga yoydi (11).*

Demak, Sayyid Qosimiy Attorning asarini o’zbek tiliga tarjima qilmagan. Balki o’zi mustaqil shu mavzuda o’zbek tilida doston yozgan. Professor N.Rahmonov Qutb, Haydar Xorazmiydagi sharqona odob, ustozlarga hurmat Sayyid Qosimiyda ham bo’rtib ko’rinishi va o’z ijodiga kamtarona baho berishi uning katta ijodkor ekanidan dalolat ekanligini ta’kidlaydi (10). Doston Attor asari kabi *hazaji musaddasi mahzuf* o’lchovida bitilgan.

Visoling dar	-dining nedur	davosi
U – – –	U – – –	U – –
Ki, haddin o’t	-ti hijronning	balosi
U – – –	U – – –	U – –

Baytda shoir tazod she’riy san’atidan foydalanib, vaznga yengillik bag’ishlaydi.

O’zbek adabiyotida Miriyning ham epik asarlari anchagina bo’lib, ularning bir qismini kichik hajmdagi masnaviylar, yana bir qismini katta hajmdagi dostonlar tashkil etadi. Shoirning kichik hajmli masnaviylari sirasiga “Choynoma”, “Gulnoma”larni kiritish mumkin. “Kichik hajmdagi masnaviylarning ayrimlari ma’lum ma’noda falsafiy ruhdagi asar bo’lsa (“Gulnoma”), ba’zisi etnografik va yumoristik xarakterga ega (“Choynoma”)” (12). Bularning voqealar rivojida shoirning hayotdan olgan taassurotlari aks etadi.

Har ikki doston-masnaviy 1965 yili M.Mahmudov tomonidan nashrga tayyorlangan Miriyning “Tanlangan asarlari”dan o’rin olgan. Biz doston-masnaviylarning vazn xususiyatlarini tahlil qilganimizda, “Gulnoma” hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida yozilganligi oydinlashdi. “Choynoma” esa aruz tizimi asosida yaratilmaganligi bois uni bu o’rinda tahlilga tortmaymiz.

Shoirning “Gulnoma” asari 1235 yili yozilgan va u 201 baytdan iborat. Bu haqida Miriy asar so’ngida ma’lumot beradi:

*Gul chehrasiyu ayog’ yuzdin,  
Ya’ni uchni unut o’tuzdin.  
Olding gulu yuzdin ul nishoni,  
Tarix: bihisht gulsitoni (8).*

Miriy “Gulnoma”da hayot go’zalligini tarannum etadi. “Gulnoma” soqiyga murojaati bilan boshlanadi:

Soqiy, qa/dahing mo‘-l+et/ karamdin,  
 — — U/U — U —/ U — —  
 Qolmish bu/ rabot(i) jo/mi Jamdin (8).  
 — — U/ U — U —/ U — —

Yuqoridagi noma yo‘nalishidagi dostonlar “Muhabbatnoma” vaznida yozilgan edi. Lekin, “Gulnoma”dan keltirilgan bayt “Layli va Majnun” vaznida ya’ni *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzufda* bitilgan. Baytning birinchi misrasida vasldan, ikkinchi misrada esa imoladan foydalanilgan. Shunga ko‘ra “**mo‘l**” so‘zining so‘nggi undoshi “**et**” so‘ziga qo‘shilib, “**rabot**” so‘ziga esa bitta “**i**” unlisi orttirilib talaffuz etiladi.

Miriy asarda gullarning nomi, xususiyatlari orqali o‘z ijodiy niyatiga erishadi. Har bir gulning tasviri orqali u o‘z botinidagi qarama-qarshi kuchlar bilan kurashadi. Bir o‘rinda ularni yengadi, birda esa yengiladi. Jumladan:

Jonlar ba/ri foni(y) — tang/ri boqiy,  
 — — U/U — U —/ U — ~  
 Ko‘p muncha/ tag‘ofu-l+et/ma, soqiy (8)  
 — — U/ U — U —/ U — ~

deb, jonlarning o‘tkinchi, faqat tangrining boqiy ekanligini ta’kidlaydi va soqiyning beparvo bo‘lmasligini so‘raydi. Bayt *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsurda* bitilgan. Shuningdek, vazn talabi bilan taslim, vasl hodisalaridan foydalanilgan. Unga ko‘ra “**foni**” so‘zi vazn taqozosi bilan “**foni**” tarzida qisqa qilib, ya’ni “**y**” undoshi tushirilib talaffuz qilinadi. Ikkinchi misrani ham tanlangan vaznga muvofiq o‘qish uchun “**tag‘oful**” so‘zi oxiridagi yopiq bo‘g‘inning so‘nggi undoshi o‘zidan keyin turgan unli bilan boshlanuvchi “**et**” bo‘g‘iniga qo‘shib o‘qiladi. Natijada, avvalgi yopiq bo‘g‘in ochiq bo‘g‘inga aylanib, vazn ruknlarga moslashadi.

*Menkim guli nozbo‘ ekibman,  
 Mehnatlar aning uchun chekibman.  
 Ja‘far guli-yu guli hinolar,  
 Ham tojixurusi xush jilolar (8).*

Keltirilgan parchada qofiya uchun qo‘llanilgan **ekibman, chekibman, xinolar, jilolar** kabi so‘zlar vaznni belgilashda asos bo‘lgan va ular bir qisqa va ketma-ket ikki cho‘ziq hijoli *fauvlun* ohangida o‘qiladi.

Asarda shoir murakkab she’riy san’atlarni ham qo‘llaydi. Shunday she’riy san’atlardan biri *raddul aruz ilal ibtidodur*. “Tasbi’ yoki raddul aruz ilal ibtido (aruzning ibtidoda takrorlanishi) deb birinchi misrani tugatgan so‘zning ikkinchi misra boshida kelishiga aytiladi” (2). Matla’ baytning birinchi misrasi “**gul**” so‘zi bilan tugaydi va keyingi misra shu so‘z takrori bilan boshlanadi.

*Soqiy, to‘la ayla sog‘ari gul,  
 Gul yuz uza tashla zulfi sunbul (8).*

“Gulnoma”ning qolgan boshqa baytlarida ham mazkur holatni kuzatish mumkin. Asarning ta’rix berilgan qismidan keyingi ikki bayti *hazaji musaddasi mahzufda* bitilgan.

*Eshitmog’lig’/ uchun afso/nadur bu,*  
 U — — —/U — — —/U — — —  
*Demang Miriy/ni siz: — Devo/nadur bu!*  
 U — — —/U — — —/U — — —  
*Na gul qolg’ay jahonda, ne guliston,*  
*Havo qilgan qushimga donadur bu. (8).*

**Xulosa.** Dastlab fors adabiyotida vujudga kelgan noma janri turkiy adabiyotda munosib o‘rin egalladi. Ilk noma janridagi asar Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Sayid Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asarlarni tadqiq etishni izchil davom ettirish ular mohieatini anglashga imkon beradi.

Qosimiyning ikki dostoni — “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma”ni ham “Muhabbatnoma” vaznida bitilganligi bois ularni shu yo‘nalishdagi dostonlar sirasiga kiritdik. Miriyning “Gulnoma”si noma yo‘nalishidagi doston bo‘lib, uning vazni yuqorida keltirilgan nomalardan farq qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 томлик. 13-том. — Т.: Фан, 1997. — 300 б.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-том. — Т.: Фан, 2000. — 329 б.
3. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 томлик. 16-том. — Т.: Фан, 2000. — 329 б.
4. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. — Т.: Фан, 1974. — 150 б.
5. Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. — Т.: Фан, 1992. — 64 б.
6. Қайюмий П. Тазкирайи Қайюмий. Нашрга тайёрловчи: акад. Қаюмов А. 3 жилдлик. 1-жилд. — Т.: ЎзРФА Қўлғзмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. — 322 б.
7. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараққиёт хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дис. — Т., 2016. — 267 б.
8. Мирий. Танланган асарлар. — Т.: “Тошкент” бадий адабиёт нашриёти, 1965. — 312 б.
9. Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрга тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторова Х., Қосимхонов Б., Жўраев О. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. — 304 б.
10. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. — Т.: Сано-standart, 2017. — 555 б.
11. Саййид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. Нашрга тайёрловчи: Б.Қосимхонов. — Т.: Фан, 1992. — 238 б.

12. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том. — Т.: Фан, 1978. — 328 б.
13. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилдлик. 2-жилд. Нашрга тайёрловчи Н.Раҳмонов. — Т.: ФАН, 2007. — 320 б.
14. Ҳайитметов А. Алишер Навоий ва Юсуф Амирий // Гулистон. 1987. — № 12. — Б. 26–28.
15. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. Монография. — Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. — 144 б.
16. Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. — Т.: Академнашр, 2020. — 304б.
17. <https://www.livelib.ru/book/1000250337-vis-i-ramin-fahriddin-gurgani>.

### References

1. Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois* (Majolis un-nafois), in 20 vol., vol. 13, Tashkent: Fan, 1997, 300 p.
2. Alisher Navoiy. *Mezon ul-avzon* (The criterion is great), in 20 vol., vol. 16, Tashkent: Fan, 2000, 329 p.
3. Alisher Navoiy. *Muhokamat ul-lug‘atayn* (The discussion is comprehensive), in 20 vol., vol. 16, Tashkent: Fan, 2000, 329 p.
4. Valixo‘jaev B. *Uzbek epik poeziyasi tarixidan* (From the history of the Uzbek epic poetry), Tashkent: Fan, 1974, 150 p.
5. Jamolova M. *Uzbek adabiyotida noma janri* (Noma genre in Uzbek literature), Tashkent: Fan, 1992, 64 p.
6. Qayyumiy P. *Tazkirayi Qayyumiy* (), in 3 vol., vol.1, Tashkent, 1998, 322 p.
7. Kaiyumii P. *Tazkirai Kaiyumii* (The Guardian of Tazgirey), in 3 vol., vol. 1, Tashkent, 1998, 322 p.
8. Quvvatova D. *XX asr ikkinchi yarmi uzbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari* (Features of the development of Uzbek epics of the second half of the XX century), doctor’s thesis, Tashkent, 2016, 267 p.
9. Miriy. *Tanlangan asarlar* (Selected works), Tashkent: Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1965, 312 p.
10. *Muborak maktublar, Uzbek adabiyoti bustoni* (Blessed letters. Bust of Uzbek literature), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987, 304 p.
11. Rahmonov N. *Uzbek adabiyoti tarixi* (History of Uzbek literature), Tashkent: Sano-standart, 2017, 555 p.
12. Sayyid Qosimiy. *Masnaviylar majmuasi* (Masnavid complex), Tashkent: Fan, 1992, 238 p.
13. *Uzbek adabiyoti tarixi* (History of Uzbek literature), in 5 vol., 1 vol., Tashkent: Fan, 1978, 328 p.
14. *Uzbek mumtoz adabiyoti namunalari* (Examples of Uzbek classical literature), in 2 vol., 2 vol., Tashkent: FAN, 2007, 320 p.
15. Hayitmetov A. *Guliston*. 1987, No.12, pp. 26–28.
16. Yusupova D. *Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi* (Artistic combination of content and rhythm in Alisher Navoi’s “Hamsa”), Tashkent, 2011, 144 p.

17. Yusupova D. *Aruz va mumtoz poetikaga kirish* (Introduction to Aruz and classical poetics), Tashkent: Akademnashr, 2020, 304 p.
18. <https://www.livelib.ru/book/1000250337-vis-i-ramin-fahriddin-gurgani>